




## Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik


2020- yil yanvar-dekabr



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

### Dastlabki ma'lumotlar

- 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **73,9** %ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **11,8** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **8658** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,5** foizga ko'paygan.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Savdo  
42,9 %

Sanoat  
17,9 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
14,5 %

Qurilish  
4,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 3713 ta, sanoatda 1549 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1255 ta, qurilishda 393 ta, yashash va ovqatlanishda 815 ta, tashish va saqlashda 160 ta tashkil etilgan.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	25 643	33 114	7 471
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	7 980	8 658	678
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	74,0	73,9	-0,1
Sanoat	%	40,5	45,5	5,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	95,7	95,4	-0,3
Investitsiya	%	61,0	71,6	10,6
Qurilish	%	96,6	86,8	9,8
Chakana savdo	%	89,8	80,2	-9,6
Xizmatlar	%	70,7	69,1	-1,6
Yuk tashish	%	97,1	93,3	-3,8
Yuk aylanmasi	%	95,8	82,8	-13,0
Yo'lovchi tashish	%	93,8	96,5	2,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,2	98,4	1,2
Eksport	%	76,7	57,3	-19,4
Import	%	69,7	45,9	-23,8



**2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik  
subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %da**

**YaHM**  
73,9%

**Savdo**  
80,2%

**Sanoat**  
45,5%

**Qurilish**  
86,8%

**Investitsiya**  
71,6%

**Export**  
57,3%

**Xizmatlar**  
69,1%


**Import**  
45,9%

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>7 980</b>	<b>8 658</b>	<b>678</b>
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	2 222	2 282	60
Kattaqo'rg'on sh.	320	332	12
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo tumani	292	333	41
Bulung'ur tumani	289	379	90
Jomboy tumani	357	381	24
Ishtixon tumani	494	514	20
Kattaqo'rg'on tumani	412	478	66
Qo'shrabot tumani	168	241	73
Narpay tumani	206	277	71
Payariq tumani	392	421	29
Pastdarg'om tumani	681	700	19
Paxtachi tumani	200	251	51
Samarqand tumani	664	691	27
Nurobod tumani	253	289	36
Urgut tumani	659	688	29
Toyloq tumani	371	401	30



**2020- yil yanvar-dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da**




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri – 26,4 %, Pastdarg'om tumani – 8,1 %, Samarqand tumani - 8,0 %, Urgut tumani –7,9 %, Ishtixon tumani – 5,9 %, Kattaqo'rg'on tumani – 5,5 %, Payariq tumani – 4,9 %, Toyloq tumani – 4,6 % hissalariga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- y. yanvar-dekabr	2020- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
<b>Jami</b>	<b>7 980</b>	<b>8 658</b>	<b>678</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	637	1 255	618
<b>Sanoat</b>	1 968	1 549	-419
<b>Qurilish</b>	702	393	-309
<b>Savdo</b>	2 779	3 713	934
<b>Tashish va saqlash</b>	202	160	-42
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	913	815	-98
<b>Axborot va aloqa</b>	161	161	0
<b>Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	122	135	13
<b>Boshqa faoliyat turlari</b>	496	477	-19

**Ma'lumot uchun:** 2020–yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Samarqand sh.	2 222	2 282	60
Pastdarg'om tumani	681	700	19
Samarqand tumani	664	691	27
Urgut tumani	659	688	29
Ishtixon tumani	494	514	20
Kattaqo'rg'on tumani	412	478	66
Payariq tumani	392	421	29
Toyloq tumani	351	401	30
Jomboy tumani	357	381	24
Kattaqo'rg'on sh.	320	332	12

2020- yilning yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Viloyat bo'yicha Samarqand shahrida –2 282 tani tashkil etdi.



**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**






2020- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 11,8 birlikni tashkil etdi.



**Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\***




2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 18,5 birlik, Payariq tumani 13,8 birlik Kattaqo'rg'on shahrida 12,7 birlik, Bulung'ur va Samarqand tumanlarida 12,4 birlik, Nurobod tumanida, 11,1 birlik, Ishtixon tumanida 11,8 birlik, birlikni tashkil etgan. Narpay tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 7,0 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




**2020– yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)



**2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 4,1 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 3,7 birlik, Samarqand tumanida 2,7 birlik, Jomboy tumanida 2,2 birlik, Oqdaryo tumanida 2,1 birlik, Ishtixon, Toyloq va Bulung'ur tumanlarida 2,0 birlik, Pastdarg'om va Nurobod tumanlarida 1,9 birlik, Qo'shrabot tumanida 1,8 birlik, Kattaqo'rg'on, Payariq va Paxtachi tumanlarida esa 1,7 birlikni tashkil etdi.



**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)**

**Eng yuqori ko'rsatkich**

- Samarqand shahri
- 18,5 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**

- Pastdarg'om tumani
- 9,4 birlik.

**Eng past ko'rsatkich**

- Narpay tumani
- 7,0 birlik.





**Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, %da**

2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 73,9 %ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrda 74,0 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

**80,3%**

**2018- y.**

**74,0%**


**2019- y.**

**73,9%**

**2020- y.**



**Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)**



**2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>45,5</b>	<b>86,8</b>	<b>69,1</b>	<b>71,6</b>
<i>shaharlar:</i>				
Samarqand sh.	30,2	80,2	59,7	65,3
Kattaqo'rg'on sh.	52,5	90,8	82,8	78,3
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo tumani	99,4	100,0	82,8	60,5
Bulung'ur tumani	96,1	71,4	77,2	57,5
Jomboy tumani	30,7	100,0	77,9	61,8
Ishtixon tumani	26,5	100,0	79,0	80,5
Kattaqo'rg'on tumani	50,0	100,0	80,9	75,5
Qo'shrabot tumani	100,0	100,0	84,3	62,7
Narpay tumani	9,1	100,0	82,5	74,0
Payariq tumani	48,4	100,0	77,6	88,5
Pastdarg'om tumani	65,9	62,4	73,4	88,8
Paxtachi tumani	91,0	84,9	77,0	55,5
Samarqand tumani	71,2	94,5	83,2	82,0
Nurobod tumani	100,0	100,0	75,2	76,8
Urgut tumani	81,9	100,0	63,5	98,8
Toyloq tumani	38,0	67,4	84,4	81,0

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Qo'shrabot (100,0 %),  
Nurobod (100,0 %),  
Oqdaryo (99,4 %),  
Bulung'ur (96,1 %),  
Paxtachi (91,0 %) va  
Urgut (81,9 %) tumanlarida.


**Qurilishda-**

Jomboy (100,0 %),  
Ishtixon (100,0 %),  
Kattaqo'rg'on (100,0 %),  
Qo'shrabot (100,0 %),  
Narpay (100,0 %) va  
Payariq (100,0 %) tumanlarida

**Xizmatlarda-**

Toyloq (84,4 %),  
Qo'shrabot (84,3 %),  
Samarqand (83,2 %),  
Kattaqo'rg'on sh. (82,8 %) va  
Oqdaryo (82,8 %) va Narpay (82,5 %) tumanlarida.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 192,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 57,3%ini tashkil etdi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Oqdaryo tumanida – 100 %, Nurobod tumanida – 100 %, Qo'shrabot tumani – 100 %, Paxtachi tumani – 96,4 %, Pastdarg'om tumani – 94,8 %, Bulung'ur tumani – 94,4 %, Kattaqo'rg'on tumani 89,7 %, Payariq tumani 82,4 %, eng past ko'rsatkich Toyloq tumani – 16,1 %ni tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da**



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 531,0 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 45,9 %ini tashkil etdi.



**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da**




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Payariq tumanida –100,0 %, Qo'shrabot tumanida – 100,0 %, Bulung'ur tumanida – 95,4 %, Kattaqo'rg'on sh. – 93,1 %, Urgut tumanida – 89,4 %. Eng past ko'rsatkich Samarqand shahrida – 31,1 %ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 8 216,4 milliard so'm-lik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2020- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (2 432,9 mlrd. so‘m), Urgut (1 335,0 mlrd. so‘m), Samarqand (998,2 mlrd. so‘m), Jomboy (645,8 mlrd. so‘m) va Bulung‘ur (498,7 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qo‘shrabot tumanida (45,9 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 45,5 foizni tashkil etdi.



**2020- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da**






Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Qo'shrabot va Nurobod tumanlari (100%), Oqdaryo tumani (99,4%), Bulung'ur tumani (96,1%), Paxtachi tumani (91%), Urgut tumani (81,9%), Samarqand tumani (71,2%), Pstdarg'om tumani (65,9%), Kattaqo'rg'on sh. (52,5%),


Kattaqo'rg'on tumani (50%)ni tashkil etdi. Narpay tumanida (9,1%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda. 2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 13 272,9 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 80,2 %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 95,8 foizni tashkil qildi.



## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (3 287,8 mlrd. so'm), Urgut (1 772,6 mlrd. so'm), Pastdarg'om (960,8 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (849,7 mlrd. so'm), Bulung'ur (714,3 mlrd. so'm) va Samarqand (710,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4916,8 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 86,8 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,9 foizni tashkil qildi.




## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati






Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (1 622,3 mlrd. so'm), Oqdaryo (441,8 mlrd. so'm), Payariq (366,1 mlrd. so'm), Urgut (300,9 mlrd. so'm), Jomboy (267,8 mlrd. so'm), Ishtixon (267,8 mlrd. so'm) hamda Samarqand (251,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 9 889,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 69,1%ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 100,3 %ni tashkil etdi.



## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (4 137,7 mlrd. so'm), Samarqand (662,9 mlrd.so'm), Pastdarg'om (594,5 mlrd.so'm), Urgut (528,5 mlrd.so'm), Jomboy (441,6 mlrd. so'm), Toyloq (456,0 mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (377,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 93,3 foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 96,6 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 82,8 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 98,3 foizni tashkil qildi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,5 foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 89,6 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 98,4 foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 89,3 foizni tashkil qilmoqda.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1 298** ta respondentlar ishtirok etdi.



## 2020- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,5 % (45 ta), sanoatda – 19,0 % (246 ta), qurilishda – 9,9 % (129 ta), savdoda – 38,3 % (497 ta), xizmatlar sohasida – 29,3 %ni (381 ta) tashkil etdi.


\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da**



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 85,7 punktga o'sgan bo'lsa, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 36,4 punktga, sanoat sohasida 16,5 punktga, qurilishda 3,8 punktga, savdo sohasida 68,1 punktga, xizmatlar sohasida 15,7 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, %da**


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

**Sanoat**

**Qurilish**

**Savdo**


**Xizmatlar**



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida -2,6 punktga, sanoat korxonalarida -11,2 punktga, qurilish korxonalarida -4,6 punktga, savdo sohasida -0,4 punktga, xizmatlar sohasida -0,6 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi pasaygan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 8,0 punktga, qurilishda 13,7 punktga, savdoda 1,3 punktga, xizmatlar sohasida 4,4 punktga oshdi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, %da**


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

**Sanoat**

**Qurilish**


**Savdo**

**Xizmatlar**






2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **150** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 22 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 14,7%), sanoat korxonalarini – 28 ta (18,7 % i), qurilish – 7 ta (4,7 % ), savdo – 62 ta (41,2 % ) va xizmatlarda – 31 ta (20,7 %) subyekt ishtirok etdi.




**2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da**






2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 6,8 punktga, sanoat sohasida 10,7 punktga, qurilishda 3,9 punktga va savdo sohasida 8,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



## 2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, %da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 17,1 punktga, savdoda 6,1 punktga oshdi, sanoatda 14,3 punktga, qurilishda 44,1 punktga, xizmatlar sohasida 16,1 punktga kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi sanoatda 28,6 punktga, qurilishda 62,3 punktga, xizmatlar sohasida 43,9 punktga, savdoda 5,8 punktga, oshdi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida esa 18,2 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi



## 2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

